



“QORAQALPOQ ADABIYOTIDA XALQ MAQOLLARINING QO’LLANISHI”

Alaveddinova Maftuna Farxadovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining Turkiy tillar fakulteti “O’zbek tili va adabiyoti” yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Kidirbaeva Larisa Iqlasbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining Turkiy tillar fakulteti “O’zbek tili va adabiyoti” yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq adabiyotida xalq maqollarining qo’llanishi va uning o’rni va ahamiyati haqida taxliliy fikrlar kelirilgan. Shuningdek maqolada naql va maqollarning o’xshash va farqli jihatlari, qoraqalpoq va o’zbek maqol va naqlarining qiyosiy tahliliga oid fikrlar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Qadimiy va boy tarixga ega qoraqalpoq , naql, maqol.

Qadimiy va boy tarixga ega qoraqalpoq folklorining asosini lirik va epik asarlarning barcha turlari tashkil etadi. Lirik janr asarlariga xalq, marosim qo’shiqlari (yor-yor, haujar, juqlov, yaramazon, gulapsan va boshqalar), aytis (aytishuv, qo’shiqbella shuvlar), matal va maqollar, masallar, tez aytish; epik janr asarlariga ertak, tulgov, terma, dostonlar kiradi.

Qoraqalpoq xalq og’zaki ijodiyoti asl nusxalarini milliy merosini olim Qalli Ayimbetov tomonidan bir qator dostonlar, naql-maqollar yozib olingan edi. Qoraqalpoq xalq naql-maqollarida: yaxshilik va yomonlik, do’st va dushman, halol va harom, sodalik turmush detallari solishtiriladi va so‘z aytildi. Adolat ornomusning tozaligi, inson pokligi va haqiqatgo‘ylikni, kelajak avlodga nasihat qilib qoldirganlar. Naql-maqol terminlari qoraqalpoqlar orasida keng tarqalgan janr hisoblanadi. “Maqol” so‘zining ma’nosi “o’rinli so‘z” ya’ni tegishli o‘rinda aytildigan so‘z, deyiladi. Bu janr barcha xalqlar orasida har turli terminlar bilan berilgan. Shulardan turkiy xalqlarning ko‘pchiligidagi ayirim fonetik o‘zgarishiga qaramasdan bir-biriga juda yaqin keladi.

Masalan: O‘zbeklarda “maqol” Turkmanlarda “naql” va “otalar so‘zi” Qirg‘izlarda “naql-laqaplar” Qozoqlarda “maqal metel” deyiladi. Otabobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan dono so‘zlarning ko‘pchiligi “Otalar so‘zi - aqlning ko‘zi” deyiladi. Bu bir tomonlama naql-maqollarning yana bir nomi bo‘lsa, ikkinchi tomonlama xalqning bergen bahosi xisoblanadi. Doston va ertaklarda “maqol” termini aytilmaydi.Ularda hamma joyda naql termini qo’llaniladi, sababi shu janrning



atamasi sifatida ko‘zga tushadi. Og‘zaki xalq ijodiyotining qaysi janrida qanday voqeaga bog‘lik bo‘lsa, naql deb tasdiqlaydilar. Shu qatorda qoraqalpoq xalqining madaniy tarixida til va so‘z san’ati-adabiyot xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib kelgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Qoraqalpoq xalq og‘zaki adabiyotining eng katta qismini qoraqalpoq xalq naql-maqollari egallaydi. Bu naql-maqollar xalqning asrlar davomida otadan-bolaga, avloddan-avlodga saqlanib kelayotgan xazinasidir. Uni o‘zlarining mehnat tajribalaridan va mulohazalaridan, dono so‘zlaridan, turmush tarzidan kelib chiqqan so‘z marjoni desak to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki xalqning asrlar bo‘yi kundalik turmush tarizidan, tarixiy tajribalaridan kelib chiqqan so‘z durdonalarini o‘z ichiga oladi. “Naql” termini o‘zbek bilan qozoqlarda ham bor, biroq Turkman bilan Qoraqalpoqlarda “naql” terminining vazifasi boshqa xalqlarga qaraganda har tamonlama keng qo‘llaniladi. Qoraqalpoq xalq naql-maqolalari o‘zaro mazmun mohiyati va o‘zgachaligi bilan naqlagini so‘zlar to‘g‘ri va aniq ma’noga ega ekanligini bildiradi. Undagi so‘zlarni tinglovchi aql-nasixat so‘zlarni eshitadi, qisqa qilib aytganda, turmushda bo‘ladigan voqealarga asoslanib, naqma-naqt aytilgan so‘zlarni naql so‘zlar deb ataladi. Qoraqalpoq xalqining og‘zaki adabiyoti uning madaniyati bilan uzviy bog‘liq. Barcha xalqlar qatori qoraqalpoq millatida ham xalqning ijodiyoti insonparvarligi adolatligi kelajak avlodga meros qoldirishda xalq turmush tarzi, kasb egalari, keksalarning hayotiy tajribasi asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan ularni yetti guruhga bo‘lishimiz mumkin.

1. Mehnat haqida. “Mehnatning ko‘zini topgan baxtning o‘zin topadi”, “Mehnat bilan el ko‘karadi, yomg‘ir bilan yer ko‘karadi,” Mehnat tubi roxat, harakatga barakat”.

2. Pand-nasihat haqida. “Oltin ham tosh, toshta-tosh, Oltindek bo‘la olmas, boshqa tosh, Odam oltin topadi, Oltin odam topilmas.” Qazondan qora narsa yo‘q ichsang tamoq to‘ydiradi, Qordan da oq narsa yo‘q ushlasang qo‘lini tungdiradi.

3. Vatan el xalqini sevish, og‘izbirchilik, do’stlik haqida. Yer jigit yeli menen tuwiladi. Eli ushym oledi. (Er yigit eli bilan tug‘iladi, eli uchun o‘ladi), Watan ku’nnen suliw, altinnan qimbat (Vatan kundan chiroyli, oltindan qimmat). Qus qanati menen adam elati menen. (Qush qanoti bilan odam el oti bilan)

4. Dehonchilik kasbi haqida, Bu maqollarda dehqonchilik, baliqchilik va boshqa kasbga oid maqollar dehqonlarning tajribalarini yanada rivojlantirishda turli usullarda qo‘llanilgan Masalan; Jer sursen guz sur. Guz surmesen juz sur (Yer haydasan kuz hayda, Kuz haydamasang yuz hayda).

5. Yil mavsimlari va tabiyat haqida. Aydyn on besi jariq on besi qarang‘i,



(Oyning o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'u). Ush ay sao'yinym, (Uch oy sovinim) Ush ay qawinim,(Uch oy qovunim), Ush ay shabag'im,(Uch oy chabag'im) Ush ay qabag'im.Uch oy qobog'im)

6. Shoir yoshuvchilar haqida; Yegin yeldin sani, (Ekin eldin sani)bilim yerdin sani, (Bilim yerdin sani)Egin yeksen ilim menen, (Ekin eksang ilim bilan) Molig'arsan yelin menen. Mo'l -ko'l bo'lar eling bilan. Oylы jigit jaqsi bilimpaz keler, Ongli yigit, yaxshi ilimpoz kelar) Aytgan gaplerine tusinpaz keler. Aytgan gapiga tushunpoz kelar) Ata-anani qadirle, (Ota-onagni qadrla) Olgenin'she jaqsi so'yle.(O'lganingcha yaxshi so'zla).

7. Ota-onsa, qarindosh urug' urtasidagi bordi keldi haqida. Atana ne qilsan aldina sol keledi. (Otanga nima qilsang oldinga shu keladi) Ananin' kewli balada, (Onaning ko'ngli bolada) Balanin kewli dalada.(Bolaning ko'ngli dalada) Ag'asi bardin' irisi bar, (Akasi borning risi bor) Inisi bardin tanisi bar. (Ukasi borning tanishi bor) Atadan altaw tuwsan'da (Otadan oltov tug'ilsang ham) Watanina jalg'izsan.(Vataninga yolg'izsan).Bunday maqollar mehnatni sevish, ilm va hunar o'rganish, bilimli bo'lish, har bir ishni o'z vaqtida bajarish, ota-onsa va aka-uka opasingillarni qadrlash odob-axloqli bo'lish, xalqqa sadoqatli bo'lish,yoshlarimizni jamiyatda o'z o'rnnini egallash kabi naql-maqollar insonni vatanparvarlikka chorlaydi. Shuningdek, "Togning kattaligi yerga qaraydi,erning kattaligi esa elga qaraydi" har bir xalq naql-maqoli esa,kamtarlikka, saqiylikka undaydilar.

Qoraqalpoq mumtoz adabiyotining yirik namoyondasi shoir Jien jirovning (1730-1784) faoliyati muhim ahamiyatga ega. O'zining „Ulug' tog“,, „Pusgan el“ dostonlarida qoraqalpoqlarning Xorazmga ko'chib kelishiga shoirning yana bir „Xush bo'ling, do'stlar“ she'ri bag'ishlangan.Shoirning "Posgan el" dostonida "Er yigit elida qadrli","Erning kuni el bilan, Elning kuni yer bilan", "Qo'li qimirlaganning, og'zi qimirlar" kabi maqollar uchraydi. Bu maqollar xalq o'z yeridan uzoqda yurgan vaqtlarida ishlatilgan maqollar hisoblanadi.Yana bir shoir Kunxo'ja she'rlarida o'zi yashagan davrdagi xalq hayotini tasvirlagan. Ajiniyozining ijodi 19-asrda ijod qilgan qoraqalpoq shoirlari yetakchi o'rinni egallaydi. Uning asarlari alohida to'plamlar sifatida qoraqalpoq, o'zbek, qozoq va rus tillarida chop etilgan. Berdaq shoirning lirik, satirk, didaktik she'rlari, tarixiy dostonlari diqqatga sazovor. Shuningdek, Otesh Alshinbay o'g'li (1828-1902), Qulmurot Qurbon o'g'li (1845-1926), Omar Sugirimbet o'g'li va boshqa shoirlarning she'r, doston va boshqa asarlari qoraqalpoq adabiyoti tarixida munosib o'rin egallaydi.

20-asr boshlarida qoraqalpoq adabiyotida she'riyat yetakchilik qildi. Hozirgi zamon qoraqalpoq adabiyotining asoschilari A.Musayev, S. Majitov, K. Avezov, K.



Yormanov, I. Fozilov, N. Dovqorayev, A. Begimov, J. Aymurzayev, D. Nazberganov, M. Daribayev, A. Shomuratov, S. Qurbaniyozov va boshqalarning ijodida madaniyat va ma'rifat, ta'lim, mehnat, tabiat, xalqlar do'stligi, ayollar tengligi va boshqa umuminsoniy masalalar asosiy mavzulardan biri bo'ldi. 20-asrning 20-40-yillaridagi qoraqalpoq adabiyotida Qozi Maulik Bekmuhammad o'g'li (1885-1950), A. Dabilov, S. Nurimbetovlar ijodida xalq og'zaki ijodining boy an'anaviy merosi keng tasvirlangan. 1940-1945-yillarda qoraqalpoq adabiyotida tashviqot-targ'ibot yo'nalishidagi publistik asarlar bilan feleton, ocherk, qisqa hikoyalar yaratila boshladi.

1960-1980-yillarda qoraqalpoq dramaturgiyasida P. Tulegenovning „Onalar“, „Ko'lanka“, „Inson taqdiri“, J. Aymurzayevning „Berdaq“, „Qadrdon doktor“, S. Hojaniyozovning „Suymaganga suykanma“, „Ahmoq podsho“ pyesalari muhim ahamiyat kasb etadi.

1970-1980-yillar dramaturgiyasida teatr sahnalarida qo'yilgan K. Rahmonovning (1942-2002) „U dunyoga taklif“ tragikomediyasi, „Injiqning muhabbat“ komedyasi, I. Yusupovning „Ajiniyoz“ operasi librettosi yangi muhim hodisa sifatida tan olindi. 1970-1980-yillardagi qoraqalpoq prozasi G. Yesemuratova, U. Pirjanov, A. Atajonov, J. Seytov, S. Bahodirova, X. Hamidov, K. Mambetov, O. Bekbaulov, I. Qurbanboyev, S. Soliyev, M. Qayipov kabi yozuvchilar bilan boyidi. Hozirgi zamon qoraqalpoq prozasining rivojlanishida T. Qayipbergenovning ijodi alohida o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Prezidentining Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'rsidagi qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining 26.04.2018 yildagi 304-sun qarori bilan tasdiqlangan "Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish bo'yicha 2018-2022 yillarga mo'ljallangan yo'l xaritasi
3. Kudaybergenova B.B. "Yakkaxon qo'shiqchilik" o'quv qo'llanmasi Toshkent 2022 y
4. A.R. Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan èdgorliklar" -T.: Fan, 1979
5. Koshanov B.A. "Qoraqalpog'iston tarixi". Nukus-2006.
6. Abdurahmonov O'. Qoraqalpoq dunesi. 2011.B.110 8. Bartold
7. Q.Ayimbetov. Xalq donalig'i 1988y.
8. Qoraqalpoq folklori ko'p jildlik.1988y